

ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" VA "LISON UT-TAYR"
DOSTONLARIDAGI ME'ROJNOMA BOBLARI TASNIFI.

Abduvohidov Behruz

Ishquvvatov Mamarasul

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

2 - bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7816300>

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'azal mulkining sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" hamda "Lison ut-tayr" dostonlaridagi me'roj voqealari aks etgan boblar tahlili haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Me'rojnoma boblari, me'rojnoma voqealari, tamse, tashbeh, tashxis.

КЛАССИФИКАЦИЯ АЛИШЕРА НАВОИ ОБРЯДОВЫХ ГЛАВ В ЭПОСАХ
«САДДИ ИСКАНДАРИЙ» И «ЛИСОН УТ-ТАЙР».

Аннотация. В данной статье представлена информация об анализе глав в эпосах «Садди Искандарий» и «Лисон ут-Тайр» Алишера Навои, султана газельского сословия, в которых отражены события Мираджа.

Ключевые слова: Главы Межожномы, события Межожномы, тамсе, ташбех, диагностика.

ALISHER NAVOI'S CLASSIFICATION OF RITUAL CHAPTERS IN "SADDI
ISKANDARI" AND "LISON UT-TAIR" EPICS.

Abstract. This article provides information about the analysis of the chapters in the epics "Saddi Iskandariy" and "Lison ut-Tair" by Alisher Navoi, the sultan of the ghazal estate, which reflect the events of Miraj.

Key words: Chapters of Me'rozhnoma, events of Me'rozhnoma, tamse, tashbeh, diagnosis.

O'z o'rniida na't boblarni vasf na'tlar va me'rojnoma na'tlarga bo'lib o'rgansak to'g'riroq bo'ladi. Me'rojnoma boblar shoirning falsafiy, axloqiy –ta'limiy va komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Dostonlarni o'rganar ekanmiz, me'rojga bag'ishlangan boblar "Xamsa"ning beshala dostonida ham shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonida ham borligiga guvoh bo'lamiz. Ayni vaqtda bu boblar bir-biriga o'xshamagan tarzda yaratilgan. Me'rojnoma boblari hajm jihatdan ham turlicha "Saddi Iskandariy"da 125 bayt va "Lison ut-tayr"da 53 baytdan iborat.

"Saddi Iskandariy"

Me'roj voqeasi tunda bo'lib o'tganligi hammamizga ma'lum. Navoiy Me'rojnoma boblarini tun tasviri bilan boshlaydi. "Saddi Iskandariy"da bobda keltirilgan birinchi baytda kechani, ya'ni me'roj voqeasi bo'lib o'tgan tunni koinot jamoliga chiroy qo'shuvchi xolga o'xshatadi. Keyin ruju' san'atini qo'llagan holda fikridan qaytib uni qop-qora, mushkin sochga qiyoslaydi:

Demay xolkim, gesuyi mushkrez,

Qilib ofaninish uza mushkbez.

Bu yerda ishtiyoq san'atini qo'llab sochning (tunning) ham qop-qora, ham xushbo'y ekanligini ifodalayapti. Kecha ta'rifida davom etgan holda uning juda ajoyib va go'zalligi, xush ishliligi keltiriladi.

Kecha ta'rifidan so'ng Payg'ambar (s.a.v.) tavsifiga o'tiladi hamda o'sha kecha Ummahoniyni uyida edi deb keltiriladi:

*Quyoshdek ulusdin nihoniy bo'lub,
Yeri hujrai ummahoniy bo'lub.*

Me'roj haqidagi manbalarda Payg'ambar (s.a.v.) o'sha tunda Ka'baning Xotiym qismida yotganligi aytib o'tiladi [4: 94-bet]. Yana ba'zi asarlarda ammasi – amakisi Abu Tolibning qizi Ummahoniyni uyida edi deb keltiriladi [1:105-bet].

Shu ma'lumotlarga tayangan holda Navoiyning baytlarini Ummahoniy uyida edi tarzida tahlil qilishni ma'qul topdik. Keyingi baytlarda Jabroil (a.s.) va Buroq ta'rifi beriladi:

*Ki nogoh chaqildi bir tez barq
Ki ofoqni qildi nur ichra g'arq.
Demay barqkim, toyiri barqsayr
Qo'lida bir ul nav'kim barqtayr.*

Buroqning o'zagi "barq" (yashin), Navoiy shunga ishora qilib, uning tez yurarligini nazarda tutgan holda yuqoridagi baytlarni keltiradi. Quyidagi baytda esa tarse' san'ati qo'llanganligini ko'ramiz:

*Anga Sidra koxi navogoh o'lub,
Munga ravza bog'i charogoh o'lub*

Diniy adabiyotlarda har kimning maqomi belgilab qo'yilganligi va Buroqning Jannatdan chiqqan ot ekanligi aytib o'tiladi. Jabroil (a.s.)ning maqomi Sidratul muntahoda ekanligi keltiriladi [4:93-95-bet]. Navoiy bu baytda shunga ishora qilgan. Keyingi baytlarda Payg'ambar (s.a.v.) ning Buroqqa minib yo'lga tushganligi tasvirlangan baytlarni ko'ramiz. Yuqorida keltirgan "Ummahoniynikida edi" talqinimizga isbot tariqasida yana bir baytni keltirishimiz mumkin:

*Chu otlandi rokib, nechukkim daraxsh
Burun surdi Baytul Haram uzra raxsh.*

Ya'ni rokib - Payg'ambar (s.a.v.) avval Baytul haram masjidiga yo'l oldi. Keyingi baytda esa masjidi Aqsoga borganligi va Arshi A'loga chiqqanligi keltiriladi:

*Yana po'yada qo'ydi Aqsog'a yuz,
Ne Aqsog'a yuz, charxi a'log'a yuz.*

Keyingi baytlarda falaklar va ularga tegishli sayyoralar tasviri beriladi: birinchi falakda Oy, ikkinchisida Utorud, uchinchisida Zuhra, to'rtinchisida Quyosh, beshinchisida Bahrom (Mars), oltinchisida Mushtariy, yettinchisida Zuhal bilan uchrashadi. Ularning hammasi Payg'ambar (s.a.v.) sharofatidan bahramand bo'ladi. Navoiy sayyoralarning nima timsoli – homiysi ekanligiga ishora qilgan holda ajoyib tashbehlar qo'llaydi. Masalan, san'atkorlar homiysi Zuhro uni ko'rishi bilan udini yashirib qo'yadi; Bahrom – jang-jadallar homiysi qon to'kishni bas qiladi; Zuhal – baxtsizlik, omadsizlik timsoli uning sharofati bilan baxtli bo'ladi.

Undan so'ng 12 ta burj bilan uchrashuv tasvirlanadi. Bu yerda ularning nomlari va belgilari vositasida go'zal o'xshatishlar keltirilgan.

*Bo'lib qosh uchidin ishoratnamoy
Berib qoba qavsayndin mujda yoy.*

Baytda Navoiy Payg'ambar (s.a.v.) Me'roj kechasi erishgan "Qoba qavsayn" (ikki yoy oraliq'icha yaqin) darajasiga Qavs - Yoy burjining nomi yordamida ishora qilyapti.

Yo'li ustida Qubg'akim suv sochib,

Sochar vaqti suv yo 'qki inju sochib.

Dalv – Qubg'a (Qovg'a) Payg'ambar (s.a.v.) yo'liga suv o'rniga inju sochyapti deya tashxis san'atidan foydalangan.

Arsh, Kursi va Lavh maqomlarini tasvirlar ekan, qalam haqida juda chiroyli bayt keltiradi:

Qalamg'a yetib maqdamidin kushod,

Yozib chashmxaxmi uchun "in yakod".

Bu yerda "in yakod" ko'z tegmasligi uchun o'qiladigan duoning ilk jumlasini bo'lib, "Qalam" surasining 51-52-oyatlaridir. Arsh, Kursi va Lavh maqomlaridan o'tgach hamrohlarini qoldirib Payg'ambar (s.a.v.) o'zi yo'lda davom etishi keltiriladi:

Buroqin tushub paykiga topshurub,

Qadamsiz yurub, po' yasiz gom urub.

Yana Payg'ambar (s.a.v.) to'rt unsur va olti tarafdin ajralib Alloh visoliga yetishganligi, Allohdan ummatlari gunohini so'rab olganligi keltiriladi:

Necha ikkilik naqshi nobud o'lub,

Bir o'q vahdati sirf mavjud o'lub.

Ko'rub bahri g'ufironni chun mavjok,

Tilab osiy ummat gunohini pok.

Navoiy Payg'ambar (s.a.v.) safardan qaytishda juda boshqacha suratga kirganligini ta'kidlab o'tadi:

Kelib g'unchau bog'i rizvon yonib,

Yetub qatrau bahri Ummon yonib.

Ya'ni kelishda g'unchadek bo'lgan bo'lsa, qaytishda jannat bog'idek edi, kelishda qatra suvdek bo'lgan bo'lsa qaytishda Ummon – dengizdek edi deya tashbeh san'atini qo'llaydi. Keyin esa yo'ldoshlari oldiga kelgan Payg'ambar (s.a.v.)ni Jabroil (a.s.) va Buroq tanimay qolganligini aytib o'tadi:

Yonib yuz qo'yub raxshu yo'ldoshig'a,

Tanilmay yetishgach alar qoshig'a.

Payg'ambar (s.a.v.)ni kuzatish uchun maloikalar chiqib, uning boshidan nurlar sochishadi. Navoiy bu yerda tamsil san'atini ishlatadi:

Jamoliga chun ko'zlarin ochibon

Tabaqi nurlar boshig'a sochibon.

Anga nur sochmoqqa monand bu

Ki sochqoy kishi bahri ummonga su.

Payg'ambar (s.a.v.) o'zlari shunday nurga chulg'angan ediki, maloikalar uning boshidan nur sochishi xuddi dengizga suv sepayotganga o'xshaydi. Bobni tugatar ekan, Navoiy bu voqea Olloh inoyati bilan bo'lganligini, kishi aqli unga yetmasligini aytib o'tadi:

Munungdek safarkim emas xalq ishi

Ki sharhi oning anglay olmas kishi. [2:522-527-bet]

"Lison ut-tayr"

U payg'ambarlik oftobining anqo qushining balandparvozligi va haqiqiy mahbub visoliga yetib qush tili bilan so'zlashgani va sirlashgani martabasi falakka yetadigan shohni Haq ko'k sari javlon qilishini istaganida, u tuban falak tashvishlaridan forig' bo'lib, o'z hujrasida yaxshi kayfiyatda o'tirardi.

*Ul kechakim , ul shahi gardunmaqom
Kim oni haq istadi gardunxirom.
Ummahoni hujrasida erdi hush,
Dahri dun ashgolidin osudavash,
Kim yetishti oliğa ruhul amin,
Arz etib paygomi rabbil olamin.*

Uning oldiga ruhlar amini kelib, olam Allohining xabarini yetkazdi. Farishtaning bir qo'lida yashinday tez uchadigan buroq bo'lib, bu ulov bilan yashin ham bahslasha olmasdi. U dedi: "Ey Allohga joning bilan yaqin zot! Suyukli bo'lganing uchun vujuding bilan ham Allohga yaqinlashgin. Buroq keltirdim, suvori bo'lgin, toki bu feruza osmon gumbazi yo'ling gardi bo'lsin". Shoh otga mindi. Chunki u hukmning kimdan ekanini yaxshi bilardi. Qutli ulovi havolanganida, uning qadamidan falak eli bahramand bo'ldilar. Bu suvori sharafi tufayli yangi oy to'lin oyga aylandi. Ikkinchi osmonga bayroq sanchganida, Atorud qalamidan durlar sochila boshladi. Uning zotidan uchinchi maydon - osmon sharaf topgach, Zuhra musiqachilik qilib kuylay boshladi. U to'rtinchi samoga ot surganida, yulduzlar shohi - Quyosh undan o'ziga nur oldi. Buroqini beshinchi ko'kka surganida, Nahsi Asg'ar shu zahoti Sa'di Akbar bo'ldi. Sa'di Akbar tomon yo'li tushganida, uning nazaridan saodat nuri yo'naldi. Beshinchi ko'kka o'tganida, bechora hindi "Alloh nuri!" deb yubordi. Yana ikki vodiyni sayr etgach, sakkizinchi osmon qiblasini ko'rindi. Suvoriy nuri ta'siridan Savrga Asad (sher) xususiyati yuqdi. Javzo uning xizmatiga shaylandi. Saraton esa to'g'rilik mevasini berdi. Arslon it kabi uning oyog'i ostiga o'zini tashladi, boshqoq urug'lari javohirga aylanayozdi.

Tarozi o'z o'lchovligini ko'rsatdi, Chayon esa o'z zahrini zaharni kesuvchi doriga aylantirdi. Yoyni qoshi ishorasi hilol qildi. Qadami xosiyatidan Jady — tog' echkisi zarrin kiyikka aylandi. Dalv uning so'zlaridan jon suvi topdi. Hut (baliq) uning nutqidan obihayot topdi. Yo'lda uchraganlarga shunchalik sharaflar yetkazib, ulovini barchasidan yuqori surdi. U Arshu Kursiga tabarruk bayrog'ini yetkizganida, Lavhu Qalam undan muhtaram bo'ldi. Lomakon maydonida javlon qilib, undan ajoyib bir maydonga yo'l oldi. Bunda xabarchi bilan ulovi sayrdan to'xtadi: go'yo qushdan ikki par tushib qolganday bo'ldi. Tarkibiy unsurlar azobidan qutilib, jahon tashvishlaridan ozod bo'lib, egnidan manmanlik to'nini tashlab, olovdan odamlilik uchqunini ayirib, o'zni o'zlik asoratidan qutqarib, o'zdan o'zgalikka aylandi. Yel, tuproq, o't va suvdan tozalanib, men, sen, u va bulikdan tozalanib, yaqinlik dargohida o'rin topib, hatto undan ham yaqinroq bo'lishga harakat qildi. Yetmish ming pardani bartaraf etdi, orada parda qolmadi.

Oradagi bor- yo'q to'siqlar bartaraf bo'lib, u do'st oldida suyukli bo'lib qad ko'tardi. LimaAlloh bo'sag'asiga yastandi, xuddi ikki yoydek bir-biriga yaqinlashdi. Man etish va moneliklar barham topib, ruxsat bo'lgach, monelik bo'lmaydi demakdir. Ko'zlarini mislsiz o'tkir nur bilan yoritdi. Soyalik mulohazasi bartaraf bo'ldi. Hech bir kishi topa olmaydigan martabani topdi: bu ish kishilik qo'lidan keladigan ish emas edi. Bu damda o'zi va o'zligidan xabari yo'q, balki o'z va o'zligidan asar ham yo'q edi. Yotlikdan nishon qolmay, hatto o'zlik ham oradan ketib, faqat jonon qoldi. U jonon jamolini ko'z bilan ko'rib, uning visolidan so'z orqali bahra topdi. Har lahzada yuz ming hurmat ko'rsatib, to'qson ming so'zni idrok etdi. Gunohkor ummatning gunohini so'radi, barcha og'ir ahvoliga chora istadi. U nimaniki istagan bo'lsa, mutlaq tirik —

Allohdan topdi: Haq tiladi, Haqdan tiladi va Haqdan topdi. O'z orzusi imkoni darajasida murod hosil qilib, ko'kdan juda masrur va shod bo'lib qaytdi. Yuksak dargoh ham uning visolidan masrur bo'ldi: amridan bu qabulxona ajoyib tarz jihoz topgan edi. U ko'kka otlanganida, qimmatbaho dur edi, u yerdan jo'shqin daryo bo'lib qaytdi. Bir kiprik qoqilgan muddatda anglab bilgani shuki, ajoyibi ham shundaki, shu vaqt ichida u yerga borib, keldi. Boshqa olamdan yerga qaytib kelgach, ushbu olam ishiga tartib joriy etdi. Biz har qancha gunohkor va gumroh bo'lsak ham, bu voqeadan voqifligimiz uchun hadiksiramasak bo'ladi. Chunki tong-la Qiyomatda shunday homiy va qo'llovchi kishi gunohlarimizni Allohdan tilaydi.

*Yuz tuman ming ahli isyonu gunoh,
Topqusi rahmat etib fazli iloh.
Bōlgusi ul-xayl aro Fopiy doği,
Qilmoğoyesen noumid oni doği.*

Ey Allohim, payg'ambar oraga tushgan kuni, u kimning gunohini tilasa, sen uning istagini qabul qilasan. Yuz minglab gunoh va tug'yon ahli ilohiy fazli bilan uning rahmatiga sazovor bo'ladilar. O'sha guruhda Foniy ham boladi, uni ham zora noumid qilmasang.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy Me'roj voqeasini tasvirlashda har bir asarda o'zgacha o'xshatish, boshqacha tasvirlardan foydalangan. Ularning eng mukammali hisoblangan, biz yuqorida o'rgangan bob ham badiiy adabiyotdagi Me'roj voqeasi tasvirining go'zal namunasi hisoblanadi. Me'rojnoma boblarda Navoiy o'zining ham diniy, ham falsafiy qarashlarini badiiy ifodalab bergan. Me'roj voqeasi inson kamolotining cho'qqisi sifatida doim Navoiyni hayratlantirib, zavqlantirib kelgan. Me'rojnoma boblar va me'rojnoma g'azallar orqali komillikka intilish g'oyasini ilgari surgan. [3:4-5 bet]

REFERENCES

1. Lutfiy A. Oydinliklar sari. - Toshkent, 2004-yil.
2. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. O'zbek adabiyoti bo'stoni. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 1991-yil.
3. Navoiy Alisher. Lisson ut-tayr. O'zbek adabiyoti bo'stoni. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 1991-yil.
4. Sog'uniiy A. Tarixi Muhammadiy. Toshkent, 2004-yil.